

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

№2

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026 fevral



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[™]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic Resource Index
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ БИБЛИОТЕКА LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 93 sahifa.
2026-yil, fevral

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR BANKLARIDA RISK-MENEJMENTNING TASHKILYI MODELLARI.....	26
Madaminov Bekzod Allayarovich	
“HUDUDGAZTA‘MINOT” AJ DA AMALGA OSHIRILGAN LOYIHALAR SAMARASI	32
Shukurillaev Jahongir Botir o‘g‘li	
HARBIY XIZMATCHI AYOLLARNING MAXSUS KIYIM SIFATIGA QO‘YILADIGAN DASTLABKI TALABLARNI SHAKLLANTIRISH	37
Abduraxmanova N.D., Mirtolipova N.X., Nasirullayeva G.S.	
СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ПРОБЛЕМЫ НЕСПЕЦИФИЧЕСКОГО ЯЗВЕННОГО КОЛИТА У ДЕТЕЙ	42
Закирова Бахора Исламовна, Каримов Достон Рустам угли	
ОЦЕНКА ВОЗДЕЙСТВИЯ ФИСКАЛЬНЫХ И КРЕДИТНЫХ ИНСТРУМЕНТОВ НА РЫНКИ ВЫСОКОЛИКВИДНОЙ ПРОДУКЦИИ И ЕСТЕСТВЕННЫХ МОНОПОЛИЙ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН.....	48
Бекзод Умматов	
ТРАНСФОРМАЦИЯ СИСТЕМ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ ЭКОНОМИКО-СТАТИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА.....	55
Вахидов Азизжон Саиджонович	
SUG‘URTA FAOLIYATIDAGI MOLIVAVIY RISKLAR: BAHOLASH VA MINIMALLASHTIRISH STRATEGIYALARI	58
Xalikulova Shirin Utkir qizi	
“ANDIJONDONMAHSULOT” AJ MISOLIDA XARAJATLARNING STRATEGIK BOSHQARUV HISOBİ: AMALIY TAHLIL VA TAKOMILLASHTIRISH TAVSIYALARI	62
Xayitboyeva Laylo Oybekovna	
XORIJİY MAMLAKATLARNING NORASMIY IQTISODIYOT DARAJASINI PASAYTIRISHDAGI TAJRIBASI	66
Alimardonov G‘ayratjon Nuraliyevich	
XO‘JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA BARQARORLIK HISOBOTLARI AUDITINI SHAKLLANTIRISH	72
Xolikov Ravshan Anvar o‘g‘li	
PUL - KREDIT SIYOSATINING TRANSMISSION MEXANIZMINI RIVOJLANTIRISH	76
Obidova Zilola Ikromjon qizi	
HOMILADORLIK DAVRIDA AYOLLARDA UCHRAYDIGAN GESTOZLI KATARAL GINGIVITNI KOMPLEKS DAVOLASHNI OPTIMALLASHTIRISH	81
Nomurodova Farangiz Lazizovna	
AGRAR KORXONALARDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHDA INVESTITSIYA MEXANIZMLARINING IQTISODIY SAMARADORLIGI VA RIVOJLANTIRISH YO‘NALISHLARI	87
Egamberdiyev Abdujabbor Xusanovich	



AGRAR KORXONALARDA INNOVATSION TEKNOLOGIYALARNI JORIY ETISHDA INVESTITSIYA MEXANIZMLARINING IQTISODIY SAMARADORLIGI VA RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI

Egamberdiyev Abdujabbor Xusanovich

Namangan davlat texnika universiteti, Mustaqil izlanuvchi

E-mail: egambergiyevabdujabbor1@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada agrar korxonalarda innovatsion texnologiyalarni joriy etishda investitsiya mexanizmlarining iqtisodiy samaradorligi hamda ularni rivojlantirish yo'nalishlari tahlil qilinadi. Innovatsiyalarni moliyalashtirish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, raqobatbardoshlikni kuchaytirish va resurslardan oqilona foydalanish imkoniyatlari baholanadi. Tadqiqotda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash choralari, xususiyl sektor ishtiroki va xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik mexanizmlari, shuningdek kredit, lizing, grant va venchur kapital kabi moliyaviy vositalarning roli o'rganiladi. Olingan natijalar asosida agrar korxonalarda investitsiya siyosatini takomillashtirish va innovatsion texnologiyalarni samarali joriy etish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: agrar korxonalar, innovatsion texnologiyalar, investitsiya mexanizmlari, iqtisodiy samaradorlik, qishloq xo'jaligi, moliyalashtirish vositalari, davlat qo'llab-quvvatlashi, xususiyl sektor, modernizatsiya.

Abstract. This article analyzes the economic efficiency of investment mechanisms for the implementation of innovative technologies in agricultural enterprises and identifies key directions for their development. The study evaluates opportunities to improve production efficiency, enhance competitiveness, and ensure rational use of resources through innovation financing. It examines government support measures, private sector participation, and cooperation mechanisms with international financial institutions, as well as the role of financial instruments such as credit, leasing, grants, and venture capital. Based on the findings, practical recommendations are proposed to improve investment policy and promote the effective adoption of innovative technologies in agricultural enterprises.

Keywords: agricultural enterprises, innovative technologies, investment mechanisms, economic efficiency, agriculture, financing instruments, government support, private sector, modernization.

Аннотация. В статье анализируется экономическая эффективность инвестиционных механизмов при внедрении инновационных технологий в аграрных предприятиях, а также основные направления их развития. Оцениваются возможности повышения производственной эффективности, укрепления конкурентоспособности и рационального использования ресурсов за счёт финансирования инноваций. В исследовании рассматриваются меры государственной поддержки, участие частного сектора и механизмы сотрудничества с международными финансовыми институтами, а также роль таких финансовых инструментов, как кредитование, лизинг, гранты и венчурный капитал. На основе полученных результатов разработаны практические рекомендации по совершенствованию инвестиционной политики и эффективному внедрению инновационных технологий в аграрных предприятиях.

Ключевые слова: аграрные предприятия, инновационные технологии, инвестиционные механизмы, экономическая эффективность, сельское хозяйство, финансовые инструменты, государственная поддержка, частный сектор, модернизация.

KIRISH

Agrar soha har qanday mamlakatning iqtisodiy xavfsizligi va barqaror rivojlanishida muhim tayanchlardan biri hisoblanadi. Bugungi globallashuv va ilm-fan taraqqiyoti sharoitida agrar korxonalarda innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish nafaqat ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga, balki mahsulot sifati, eksport salohiyati hamda resurslardan oqilona foydalanish darajasini yuksaltirishga ham xizmat qiladi. Innovatsion texnologiyalarni samarali tatbiq etish investitsiya mexanizmlarining puxta va tizimli yo'lga qo'yilishi bilan bevosita bog'liqdir. Shu bois, ushbu yo'nalishda investitsiya jarayonlarini takomillashtirish agrar sohada modernizatsiya va texnologik yangilanishni jadallashtiruvchi asosiy omillardan biri sifatida e'tirof etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rahbarligida qishloq xo'jaligi tarmog'ini modernizatsiya qilish, yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish va eksport salohiyatini oshirishga qaratilgan qator muhim normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5853-son Farmonida innovatsion texnologiyalarni joriy etish, zamonaviy sug'orish tizimlari, raqamli monitoring hamda resurs tejamkor uskunalarga investitsiyalarni kengaytirish bo'yicha ustuvor vazifalar belgilangan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 24-iyuldagi "Xorijiy investitsiyalar va kreditlarni jalb etish hamda o'zlashtirish jarayonini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-927-son qarorida agrar sohaga xorijiy investitsiyalarni jalb etish, lizing va kredit mexanizmlarini rivojlantirish, shuningdek, davlat-xususiy sheriklik asosida innovatsion loyihalarni amalga oshirishga qaratilgan aniq chora-tadbirlar nazarda tutilgan [1].

So'nggi yillarda mamlakatimizda qishloq xo'jaligi tarmog'iga yo'naltirilayotgan investitsiyalar hajmi izchil ortib bormoqda. Shu bilan birga, ularning samaradorligini yanada oshirish maqsadida investitsiya siyosatining maqsadli yo'naltirilganligini kuchaytirish va moliyaviy vositalarni diversifikatsiya qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, venchur kapital, agro-lizing, xalqaro grantlar va innovatsion kredit liniyalari agrar korxonalar texnologik modernizatsiyasini jadallashtirishda muhim moliyaviy manbalar sifatida namoyon bo'lmoqda.

Mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, innovatsion texnologiyalarni joriy etish jarayoni, odatda, sezilarli boshlang'ich moliyaviy resurslarni talab etadi va bu jarayon samarali investitsiya mexanizmlarining mavjudligini taqozo etadi. Shu nuqtai nazardan, mazkur maqolada agrar korxonalarda innovatsion texnologiyalarni joriy etishda investitsiya mexanizmlarini takomillashtirishning huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy asoslari tahlil qilinadi hamda O'zbekiston tajribasi ilg'or xorijiy amaliyot bilan qiyosiy jihatdan o'rganiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Agrar korxonalarda innovatsion texnologiyalarni joriy etish va investitsiya mexanizmlarini takomillashtirish masalalari so'nggi yillarda mahalliy hamda xorijiy tadqiqotchilarning ilmiy e'tibor markazida bo'lib kelmoqda. Jahon ilmiy-amaliy tajribasida R. Solow [2], J. Schumpeter [3], M. Porter [4] kabi olimlar innovatsiyalarni iqtisodiy o'sishning asosiy harakatlantiruvchi omili sifatida talqin qiluvchi nazariy yondashuvlarni ishlab chiqqanlar.

O'zbekistonlik tadqiqotchilar – X. Tursunov, B. Xolmatov, M. Saidova va boshqalar – qishloq xo'jaligida texnologik modernizatsiyani jadallashtirish, investitsion muhitni yaxshilash hamda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarining ahamiyatiga alohida e'tibor qaratganlar [5]. Mazkur ilmiy ishlarda tizimli yondashuv, iqtisodiy-statistik tahlil, qiyosiy tahlil hamda normativ-huquqiy hujjatlarni kontent-tahlil qilish metodlaridan keng foydalanilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tizimli yondashuv asosida agrar korxonalarda innovatsion texnologiyalarni joriy etish jarayonining barcha bosqichlari – moliyalashtirish manbalarini aniqlash, investitsiya oqimlarini boshqarish hamda iqtisodiy samaradorlikni baholash – o'zaro uzviy bog'liqlikda tahlil qilindi. Iqtisodiy-statistik tahlil orqali sohaning investitsion faollik ko'rsatkichlari, texnologik yangilanish darajasi hamda ularning hosildorlikka ta'siri baholandi. Normativ-huquqiy hujjatlarning kontent-tahlili esa Prezident farmon va qarorlarida belgilangan investitsiya siyosati choralari bilan ilmiy adabiyotlarda tavsiya etilgan mexanizmlar o'rtasidagi uyg'unlik darajasini aniqlash imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mazkur tahliliy qismda agrar korxonalarda innovatsion texnologiyalarni joriy etish bo'yicha mavjud investitsion mexanizmlarni takomillashtirish masalalari o'rganiladi; tahlil natijalari asosida aniq-amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi. Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan qabul qilingan "Agrar sektorni zamonaviy



qishloq xo'jaligi texnikalari bilan ta'minlashni rag'batlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2023-yil 29-martdagi PQ-103-sonli qaror mazkur tahlilda muhim o'rin tutadi. Bundan tashqari, "Qishloq xo'jaligida suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2022-yil 1-martdagi PQ-144-son qaror ham mamlakatimiz agrar sektorini innovatsiyalar bilan boyitish va resurslarni samarali boshqarish yo'nalishidagi asosiy huquqiy hujjatlardan biri hisoblanadi [6].

Strategik iqtisodiy ko'rsatkichlar tahlilidan ko'rinib turibdiki, agrar sektorning umumiy YaIMdagi ulushi o'tgan yillardagi 19 % dan 2025-yilda taxminan 17 % darajasiga pasaygan bo'lsa-da, mahsulot eksportida sezilarli o'sish kuzatilmoqda. Xususan, meva-sabzavot mahsulotlari eksporti hajmi 2024-yilda 1,5-2 milliard AQSh dollarini tashkil etadi, bu sohada mavjud imkoniyat esa yiliga 10-15 milliard dollarlik eksport salohiyatiga ega ekanligi ta'kidlanadi. Ushbu iqtisodiy ko'rsatkichlar innovatsiyalarni joriy etishda muhim turtki bo'lib xizmat qiladi.

1-jadval. Tahliliy natijamizni jadval ko'rinishi

Yil	Asosiy tadbir	E'tibor qaratilgan yo'nalishlar
2021	"Suvni tejaydigan texnologiyalar" qarori	Sug'orish samaradorligi, QI texnologiyalar joriyati
2023-2024	Zamonaviy qishloq-xo'jalik texnikalari	Texnika modernizatsiyasi, Avtomatlashtirish
2024	Tomchilab sug'orish subsidiya (16 mln so'm/ga)	Yashil texnologiyalar, resurs tejash

1-jadvaldan ko'rinib turibdiki, har bir huquqiy norma aniq maqsadlar – sug'orish samaradorligini oshirish, texnik bazani zamonaviylashtirish, ekologik barqarorlikka erishish orqali agrar sektor eksport salohiyatini kengaytirish kabi ustuvor yo'nalishlarga yo'naltirilgan.

Innovatsion texnologiyalarni joriy etishda investitsiya mexanizmlarini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari sifatida quyidagilar ajratiladi:

Davlat-dastakli subsidiya va grant mexanizmlari – masalan, tomchilab sug'orish tizimlarini joriy etgan fermerlarga bir gektarga 16 million so'mdan subsidiya ajratilishi real amaliy yondashuv sifatida xizmat qiladi.

Davlat-xususiy sheriklik (DXSH) asosida urug'chilik klasterlari tashkil etish, innovatsion asbob-uskunalarni kengroq manbalar hisobidan jalb qilish imkoniyatlarini yaratadi.

Tashqi moliyaviy institutlar bilan hamkorlik – qishloq xo'jaligida modernizatsiya va yuqori texnologiyalarni joriy etish maqsadida xalqaro moliya institutlari bilan aloqalarni faollashtirish, kredit va grant loyihalari asosida moliyalashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Eksport infratuzilmasini rivojlantirish – "O'zagroeksport" orqali eksportchilar bilan ishlash, mahsulotlar bazasini kengaytirish va xalqaro bozorga chiqish imkoniyatini yaxshilash sektordagi innovatsiyalarni moliyalashtirishda yuqori ahamiyatga ega [7].

Shuningdek, innovatsiya siyosati "2022-2026-yillar uchun Innovatsion rivojlanish strategiyasi" doirasida shakllantirilgan bo'lib, uning asosiy maqsadlari ilm-fan va agrar sektor o'rtasidagi sinerjiyani kuchaytirish, texnologiya transferi, DXSH asosida texnoparklar va laboratoriyalarni tashkil etishni o'z ichiga oladi.

Tahliliy natijalar shuni ko'rsatadiki, agrar korxonalarining texnologik modernizatsiyasi faqatgina texnik jihoz va kredit orqali emas, balki qat'iy belgilangan investitsiya strategiyalari, subsidiya va grantlar, DXSH mexanizmlari hamda xalqaro hamkorlik va eksport imkoniyatlarini uyg'unlashtirish orqali samarali bo'ladi. Jumladan, oqilona sug'orish, zamonaviy texnikalar va eksport bozorini kengaytirish orqali agrar mahsulotlarning qo'shilgan qiymatini oshirish mumkin [8].

Umuman olganda, maqola tahliliy natijasi quyidagi yakuniy xulosalarni shakllantiradi: agrar innovatsiyalarning samarali joriy etilishi nafaqat iqtisodiy foyda, balki oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, ekologik barqarorlik va eksport salohiyatini kengaytirishda muhim rol o'ynaydi; investitsion mexanizmlarni takomillashtirish esa mazkur natijalarga erishish uchun asosiy vosita hisoblanadi.

Agrar sektorni raqamlashtirish va innovatsion tarmoqlar asosida modernizatsiya qilishni maqsad qilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlangan "2020-2030-yillarda qishloq xo'jaligi sohasini rivojlantirish strategiyasi" (PF-5853-son, 23-oktabr 2019) agrar korxonalarda investitsiya mexanizmlarini takomillashtirishda muhim huquqiy asosni tashkil etadi. Ushbu strategiya davlat ishtirokini kamaytirish va investitsiya jalb qilishda raqobatbardoshlikni oshirishni nazarda tutadi. Shuningdek, Qishloq xo'jaligi vazirligiga innovatsion ilmiy guruhlarini maxsus fond mablag'lari evaziga moliyalashtirish tartibini ishlab chiqish vazifasi yuklangan bo'lib, 2023-2024-yillarga mo'ljallangan 5 million AQSh dollar miqdorida grantlar ajratilishi belgilangan.

Mazkur hujjatlar amaliyotda agrar korxonalarini innovatsiyalarga yo'naltirishda kredit, lizing va grantlar orqali moddiy yordam berishni ta'minlaydi. Jumladan, investitsiya effektini o'lchash uchun monitoring tizimining yo'qligi tanqidiy jihat sifatida qayd etilgan. Shu bois, mustaqil baholash va monitoring mexanizmlarini joriy etish agrar investitsiya resurslarining samaradorligini nazorat qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston qishloq xo'jaligi sohasida alternativ moliyalashtirish usullarini kengaytirishga ham e'tibor qaratmoqda. Xususan, innovatsion va raqamli texnologiyalarni joriy etishga rag'batlantirish maqsadida soliq imtiyozlari, huquqiy soddalashtirishlar, xususiy va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlari taklif etilgan. Shu tarzda kredit, lizing, grant, venchur kapital, imtiyozli soliq va eksport-import kafolatlarining integratsiyalashgan portfeli agrar korxonalarini innovatsion yo'lga motivatsiya qiladi [8].

Xorijiy tajriba va moliyaviy institutlar bilan hamkorlik hududda ilg'or xalqaro standartlar asosida investitsion ekotizimni rivojlantirishga xizmat qiladi. Jahon banki tahlillari yerga egalik huquqlarini himoya qilish va investitsiya kanaliga ishonchni oshirish zarurligini ta'kidlaydi.

Muayyan solishtirmali tahlil noaniq bo'lishi mumkin, chunki oliy huquqiy hujjatlar aniq raqamlarni bermaydi. Biroq, fondlar ajratilishi, soliq va huquqiy imtiyozlar, shuningdek monitoring tizimlarini joriy qilish orqali investitsion muhitni tubdan yaxshilash mumkinligi aniq. Shu nuqtai nazardan, Prezidentning "Innovatsion rivojlanish strategiyasi" (2022-2026) doirasidagi hukumat qarorlarida startaplar, inkubatorlar, akseleratorlar uchun alohida moliyalashtirish fondi tashkil etish, viloyat miqyosidagi tadbirkorlik markazlarini rivojlantirish va milliy tadbirkorlik tarmog'ini yaratish choralari belgilangan [9]. Ushbu mexanizm agrar sektorni keng qamrovli ekotizimga aylantirishga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Agrar korxonalarda innovatsion texnologiyalarni joriy etishda investitsiya mexanizmlarini takomillashtirish bugungi kunda qishloq xo'jaligining barqaror rivojlanishi, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va raqobatbardoshlikni kuchaytirishning muhim omillaridan biridir. Innovatsion texnologiyalar, xususan, raqamli boshqaruv tizimlari, aqlli sug'orish usullari, energiya tejankor uskunalar va biotexnologiyalar orqali agrar ishlab chiqarishda resurslardan samarali foydalanish, hosildorlikni oshirish hamda ekologik barqarorlikni ta'minlash imkoniyati yaratiladi. Biroq, ushbu texnologiyalarni keng miqyosda joriy etish katta hajmdagi investitsiyalarni talab etadi, shuning uchun investitsiya mexanizmlarining samarali ishlashi hal qiluvchi ahamiyatga ega.

O'zbekiston qishloq xo'jaligi sohasida so'nggi yillarda davlat tomonidan investitsion muhitni yaxshilash, xorijiy sarmoyalarni jalb etish, kredit va lizing imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha muhim chora-tadbirlar amalga oshirildi. Prezident farmon va qarorlarida agrar sohani modernizatsiya qilish, texnologik yangilanishni rag'batlantirish va xususiy sektor ishtirokini kengaytirishga qaratilgan aniq strategiyalar belgilab berildi. Bu esa investitsiya jarayonlarini tartibga solishda ham huquqiy, ham moliyaviy kafolatlar yaratdi. Shu bilan birga, xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik orqali qishloq xo'jaligi loyihalarini moliyalashtirish imkoniyatlari kengayib bormoqda.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, mavjud investitsiya mexanizmlarida hali ham takomillashtirish talab etiladigan jihatlar mavjud. Birinchidan, innovatsion texnologiyalarni joriy etishda risklarni kamaytirish mexanizmlarini kuchaytirish zarur. Bu, ayniqsa, venchur kapital bozorini rivojlantirish, startap loyihalarni moliyalashtirish va fermer xo'jaliklariga texnologiya xarajatlarini qoplashda grant dasturlarini kengaytirish orqali amalga oshirilishi mumkin.

Ikkinchidan, kredit resurslari bozorida foiz stavkalarini pasaytirish, lizing xizmatlarini qulay shartlar asosida taklif etish va garov talablarini soddalashtirish kabi choralarning ko'rilishi investitsiya faolligini oshiradi.

Uchinchidan, xorijiy investorlar uchun soliq imtiyozlari, bojxona preferensiyalari va yer ajratishda shaffof tartiblarni joriy etish ham dolzarb ahamiyatga ega.

Innovatsion texnologiyalarni joriy etishda investitsiya mexanizmlarini takomillashtirish nafaqat moliyaviy manbalarni topish, balki ularni oqilona taqsimlash va monitoring qilish tizimlarini ham kuchaytirishni talab etadi. Shu ma'noda, raqamli platformalar orqali investitsiya loyihalarini kuzatish, natijadorlik ko'rsatkichlarini baholash va tezkor tahlil qilish imkoniyatlari yaratilishi kerak. Bundan tashqari, innovatsion loyihalarni amalga oshirish jarayonida ilmiy-tadqiqot muassasalari, oliy ta'lim muassasalari va ishlab chiqarish subyektlari o'rtasida mustahkam hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yish, tajriba va bilim almashish mexanizmlarini rivojlantirish ham investitsiya samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Umumiy qilib aytganda, agrar korxonalarda innovatsion texnologiyalarni muvaffaqiyatli joriy etishning asosi bo'lib takomillashtirilgan investitsiya mexanizmlari xizmat qiladi. Ushbu mexanizmlar davlat va xususiy sektor hamkorligi, xalqaro moliyaviy institutlar ishtiroki, ichki moliyaviy vositalar diversifikatsiyasi hamda moliyalashtirish jarayonida risklarni kamaytirishga qaratilgan bo'lishi lozim. Faqatgina kompleks yondashuv orqali agrar sohada texnologik yangilanishni tezlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga erishish mumkin.

Demak, kelgusida agrar sohada innovatsion texnologiyalarni keng miqyosda joriy etish bo'yicha investitsiya mexanizmlarini yanada takomillashtirish, ularni huquqiy va institutsional jihatdan mustahkamlash mamlakat iqtisodiy taraqqiyoti va raqobatbardoshligini oshirishning muhim omillaridan biri bo'lib qoladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik Ma'lumotlar Milliy Bazasi. Lex.uz.
2. Durlauf S.N., Kourtellos A. & Minkin A. (2001). The local Solow growth model. *European Economic Review*, 45(4-6), 928-940.
3. Smorodinskaya N.V., Katukov D.D. & Malygin V.E. (2019). Schumpeterian growth theory in the context of the innovation-led transition of economies. *Journal of Institutional Studies*, 11(2), 60-78.
4. Porter M. & Magretta J. (2014). *Strategy and Competition: The Porter Collection (3 Items)*. Harvard Business Review Press.
5. Yusupov M. (2025). Agrar sektorda "Aqlli qishloq xo'jaligi" va "Qishloq xo'jaligi-4.0" konsepsiyalarini rivojlantirish. *Наука и инновация*, 3(18), 36-41.
6. Qudratova I. (2025, June). Agroservis xizmatlarini rivojlantirishning innovatsion yo'nalishlari. In *International Congress on Biological, Physical and Chemical Studies (ITALY)* (Vol. 13, pp. 13-18).
7. Rakhimov B. I. & Ibrokhimov M.B.O. (2021). Moddiy-texnika resurslari bozorini institutsional tuzilmasi va resurslar samaradorligini baholashning uslubiy asoslari. *Журнал Инновации в Экономике*, 4(7).
8. Rakhimov B.I., Yoldashev B.S. & Ibrahimov B.B. (2023). The need to organize a cluster in the agricultural network. *International Journal of Management and Economics Fundamental*, 3(02), 9-19.
9. Ibrahimovich R.B. & Ugli I.B. (2023). Innovative reforms in agriculture development. *The American Journal of Management and Economics Innovations*, 5(03), 9-13.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100